

TURKIY TILLARDAGI IJTIMOIIY-SIYOSIY TERMINLARNI QIYOSIY TADQIQ ETISH DAVR TALABI

Abdiyev Murod qosim Bolbekovich,
Sh.Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti professori,
filologiya fanlari doktori
murodkasim63@mail.ru

Dilmanov Ilya O'raqbayevich,
Ajniyaz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti dotsenti,
filologiya fanlari nomzodi

Annotatsiya. Ushbu maqola turkiy tillar terminologiyasining muhim tarmog'i bo'lgan ijtimoiy-siyosiy terminlar masalalarisha bag'ishlangan. Unda turkiy tillarning ijtimoiy-siyosiy terminlari tadqiq etish bilan bog'liq bo'lgan vazifalar xususidagi fikrlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar. Til, turkiy til, termin, terminologiya, ijtimoiy-siyosiy terminlar, lug'at.

TÜRK DİLLERİNDEKİ SOSYAL-SİYASAL TERİMLERİ KARŞILAŞTIRMALI ARAŞTIRMA: ZAMANININ İHTİYACI

Abdiyev Murod qosim Bolbekovich,
Ş.Rashidov adına Semerkand Devlet Üniversitesi profesörü, Filoloji Doktoru

Dilmanov Ilya Urakbayevich,
Ajniyaz adına Nukus Devlet Pedagoji Enstitüsü Doçenti, Filoloji bilimleri adayı

Annotasyon. Bu makale, Türk dillerinin terminolojisinin önemli bir dalı olan sosyo-politik terimler konularına ayrılmıştır. Türk dillerinin sosyo-politik terimlerinin incelenmesiyle ilgili görevler hakkındaki görüşler açıklanmıştır.

Anahtar kelimeler. Dil, Türk dili, terim, terminoloji, sosyo-politik terimler, sözlük.

СОЦИАЛЬНО-ПОЛИТИЧЕСКИЕ ТЕРМИНЫ В ТУРКСКИХ ЯЗЫКАХ: СРАВНИТЕЛЬНОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ ПОТРЕБНОСТЕЙ ВРЕМЕНИ

Абдиев Муродкосим Болбекович,
доктор филологических наук, профессор
Самаркандского государственного университета имени Ш.Рашидова

Дильманов Илья Уракбаевич,
кандидат филологических наук, доцент
Нукусского государственного педагогического института имени Аджинияза

Аннотация. Данная статья посвящена социально-политическим терминам, являющимся важной отраслью тюркской терминологии. В ней изложены мнения о задачах, связанных с исследованием общественно-политических терминов тюркских языков.

Ключевые слова. Язык, тюркский язык, термин, терминология, общественно-политические термины, словарь.

SOCIAL-POLITICAL TERMINOLOGY IN TURKIC LANGUAGES: COMPARATIVE STUDY OF THE REQUIREMENTS OF THE TIME

Abdiev Murodkosim Bolbekovich,

*Doctor of philological sciences, professor of samarkand state
University named after Sh.Rashidov*

Dilmanov Ilya Urakbayevich

*Candidate of philological sciences, associate professor of the
Ajniyaz Nukus state pedagogical institute*

Abstract. *This article is dedicated to the issues of socio-political terms, which are an important branch of Turkic language terminology. In it, opinions are expressed about the tasks related to the study of socio-political terms of Turkic languages.*

Keywords. *Language, Turkic language, term, terminology, socio-political terms, dictionary.*

Jahon tilshunosligida terminologiya va ijtimoiy-siyosiy leksika munosabati har doim munozarali bo'lib kelgan. Zero, ijtimoiy-siyosiy leksika ijtimoiy hayot, kundalik turmush tarzi bilan shu darajada chambarchas bog'liqki, bir qarashda ular orasiga chegara qo'yish o'ta mushkul. O'tgan asrning so'nggi choragi, yangi asr ibtidosida jahonda jamiyatning barcha sohalarida tub o'zgarishlar sodir bo'ldi. Davlat va jamiyat hayotidagi bunday o'zgarish va yangilanishlar ijtimoiy-siyosiy leksikada o'zining aksini topdi, uning boyishi va taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etdi. Bu davrda soha leksikasi ham sifat, ham miqdor o'zgarishlarini boshidan kechirdi. Bu o'zgarishlar terminlar tarkibidagi eskirish va yangilanish jarayoni, turli semantik o'zgarishlar ko'rinishida namoyon bo'ldi. Bularning barchasi tilshunoslar oldiga ijtimoiy-siyosiy terminlar tarkibi hamda semantikasiga xos xususiyatlar, ularni lug'atlarda izohlash bilan bog'liq masalalarni tadqiq etish vazifasini qo'ydi.

Dunyo tilshunosligida ijtimoiy-siyosiy leksikaga lingvistik, sotsiolingvistik, psixolingvistik, qiyosiy, kommunikativ, kognitiv hamda leksikografik yondashuvlar natijasida ijtimoiy-siyosiy birliklarning til tizimidagi rolini ochib beruvchi tadqiqotlar yaratilayotganligi e'tiborga molik. Ijtimoiy-siyosiy terminologiya tarkibi, shakllanish jarayonlarini belgilash, terminlarning semantik, struktur va derivatsion imkoniyatlari, leksikografik talqinini amalga oshirish muhim ahamiyatga ega. Terminologiya hamda leksikografiyaning ilg'or tajriba va tadqiqot metodlarini qo'llagan holda terminlarning paradigmatic va ierarxik aloqalarining terminologiyani tizimlashtirish, termin izohini shakllantirish, izohni tizimga solishga xizmat qilishini ochib berish muhim vazifalardandir.

Turkiy tillar ijtimoiy-siyosiy terminologiyasi A.B.Isabekova (qirg'iz), G.G.Kagarmanov (boshqird), N.N.Fattaxova (tatar tili), M.S.Xarlanova (turkman tili) b Pirniyazova A., Najimov A(qoraqalpoq tili), Babayev R (ozarbayjon) kabi tadqiqotchilarning dissertatsion ishlarida o'zining aksini topgan [1, 207 b.]. O'zbek tilshunosligida ijtimoiy-siyosiy leksika H.Dadaboyev, Z.Isaqova, A.O'rozboyev, A.To'raxojayeva hamda G.Tojiyeva. N. Sharopovalar tomonidan monografik asosda tadqiq etilgan [2,144 b.]. H.Dadaboyev, Z.Isaqova, A.O'rozboyev tadqiqotlarida muayyan davr yodgorliklari yoki asarning ijtimoiy-siyosiy leksikasi tahlil etilgan bo'lsa, G.Tojiyeva esa milliy g'oya atov birliklarining tarkibiy qismi sifatida o'rgangan. A.To'raxojayeva va N. Sharopovalarning tadqiqoti mustaqillik davri bilan bog'liq faollashgan ijtimoiy-siyosiy leksikaning semantik komponent tahliliga bag'ishlangan. Garchi mazkur ishda ijtimoiy-siyosiy leksikaning sinxron holati, semantik xususiyatlari tahlil etilgan bo'lsa-da, davr talabi va ijtimoiy ehtiyoj bu boradagi tadqiqotlar ko'lamini yanada kengaytirishni taqozo qilmoqda.

Ma'lumki, turkiy tillar tilshunosligida keyingi yillarda, aniqrog'i mustaqillikdan keyin birinchi o'ringa chiqarilgan rus, ingliz, xitoy, arab, turk, koreys kabi tillar bilan turkiy tillarni qiyosiy o'rganish masalalariga ham katta e'tibor berilmoqda. Biroq qardosh tillarning, ularning o'zaro fonetik, grammatik, sintaktik, leksik xususiyatlarini qiyosiy tadqiq etish borasida

monografik planda dearli ish qilinmagan, desak xato qilmagan bo'lamiz. To'g'ri, bu borada yuzaga kelgan umumiy xarakterdagi ishlardan ko'z yumolmaymiz. Jumladan, A.M. Shcherbakning "Сравнительная фонетика тюркских языков" [3, 3 b.], K.M. Musayevning "Лексика тюркских языков в сравнительно освещении", "Лексикология тюркских языков"[4, 28 b.] nomli tadqiqotlari turkiy tillarning umumiy planda qiyosiy o'rganish borasidagi muhim ishlardan sanaladi.

Asrimizning boshlarida qator turkiy adabiy tillar tez qadamlar bilan rivojlana boshladi. Shu sababli tillarda, xususan, ularning leksikasida fan va texnika, iqsodiyot, ijtimoiy siyosiy va hokozo sohalarida ko'plab yangiliklar paydo bo'ldi. Bularning barchasi maxsus terminlarning yuzaga kelishiga sabab bo'ldi. "Shuning uchun turkiy adabiy tillarning hozirgi terminalogiyasi muammolarini ishlab chiqish hamda terminlarga ilmiy va ijtimoiy nuqtai nazardan baho berish nafaqat nazariy bilim jihatidan, balki aamliy jihatdan ham katta ahamiyat kasb etadi, terminalogik ishlarni yanada takomillashtirishga imkon to'g'diradi" [5, 6 b.]. Dunyo tilshunosligida til taraqqiyotini jamiyatning, millatning taraqqiyoti bilan uzviy bog'liq tarzda o'rganish o'ta muhim masalalardan biridir. So'nggi yillarda soha terminologiyalarini o'rganish ishlari jadallik bilan rivojlanmoqda. Shuningdek, sohaga oid terminlarni tartibga solish, ularning izohli lug'atlarda berilishini takomillashtirish ehtiyoji ham ortib bormoqda. Tilshunoslikda davlat tilida ish yuritish terminlari tizimini o'rganish, tartibga solish, lingvistik va leksikografik talqini masalasi tilshunoslar diqqat-markazida bo'lib kelgan. Muayyan tilning terminologik tizimini, shuningdek, tilning umumiy boyligini ko'rsatib beruvchi izohli lug'atlar har qanday tilshunoslik uchun bu boradagi eng yirik amaliy tadqiqotlardan sanaladi. Turkiy tilshunoslikda bu masalada salmoqli yutuqlar qo'lga kiritilgan. Ammo til ijtimoiy hayot bilan bog'liq tarzda taraqqiy etib borishini hisobga olsak, lug'atlar yaratish ishining takomillashtirilishi, lug'at bazasining boyitilib, yangilanib borishi dolzarbligicha qolaveradi.

Ijtimoiy-siyosiy leksikada ilmiy terminlardan tashqari, atoqli ot va bo'yoqdor leksik birliklar ham mavjud. Ijtimoiy-siyosiy terminologiya esa tor doirada qo'llanadigan sof ilmiy terminlar bilan birga umumxalq tushunadigan va qo'llaydigan terminlardan iborat tizim. Bugungi kunda terminologik shakllarining tizimliliigi hamda bir xilligiga erishilgan ba'zi terminologik tizimlar ideal terminologiyalar hisoblanadi,...ilmiy terminlardan tashqari, nom (nomenklatura)lar, terminologik doiraga kirmaydigan kasbiy so'zlardan iborat bo'lgan maxsus leksika uchun "sohaviy leksika" atamasi qo'llanmoqda[6, 75 b.]. Ijtimoiy-siyosiy soha birliklarining murakkab tarkibini hisobga olib, soha til birliklari tizimiga keng ma'noda *ijtimoiy-siyosiy leksika* terminini qo'llash o'rinlidir. Ijtimoiy-siyosiy leksika ijtimoiy-siyosiy terminlar, ijtimoiy-siyosiy voqelik hamda munosabatlarga doir tushunchalarni ifodalovchi leksemalar, organ, tashkilot va muassasa nomlari, tarixiy qatlamdan o'rin olgan ijtimoiy-siyosiy termin va leksemalar, uslubiy bo'yoqdor leksema va barqaror birikmalarni o'z ichiga oladi.

Ijtimoiy-siyosiy mazmuniy maydonini belgilashda qiyinchiliklarning yuzaga kelishi uning ijtimoiy hodisa sifatida jamiyatning ko'pgina sohalarini o'ziga qamrashi bilan bog'liq. Chunonchi, "siyosiy tizim o'zida jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy, etnik va milliy tuzilmalarini, demografik jarayonlarni, aholining ma'lumot darajasini, ijtimoiy ong holatini, ma'naviy-ruhiy va ma'rifiy-mafkuraviy hayotni, xalqaro ahvolni aks ettiradi"[7, 118 b.]. Shuning uchun mazkur tizimlar terminlari ozmi-ko'pmi darajada siyosat kommunikatsiyasida o'zining aksini topadi. Ijtimoiy hayotning bu sohalarining har biri o'ziga xos tor sohaviy leksikaga ega. Ijtimoiy-siyosiy sohaga birlashgan leksik material faqat uning dolzarbligida, jamiyat amaldagi hayotining eng muhim masalalari bilan bog'liq bo'lganda muayyan qimmatga ega bo'ladi. Shunga ko'ra, davlat ahamiyatiga molik tushunchalarni anglatadigan ijtimoiy soha terminlarinigina ijtimoiy-siyosiy leksikaga kiritish mumkin. Demak, ijtimoiy-siyosiy leksika bu – siyosat va xalqaro munosabatlar (diplomatiya)ga, mafkuraviylik xususiyatiga ega bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy, ma'naviy-ma'rifiy, falsafiy sohalarga aloqador tushunchalarni ifodalovchi hamda ijtimoiy-siyosiy kommunikatsiyada faol ishtirok etadigan so'z va birikmalardan iborat lisoniy tizimdir.

Turkiy tilshunoslikda turli sohalarga oid terminlar yuzasidan qator tadqiqotlar amalga oshirilgan bo'lsa-da, aynan ijtimoiy-siyosiy terminlari tizimining semantik tuzilishini tadqiq qilish, til leksik sathidagi o'rnini aniqlash, terminlardagi ma'nodoshlik, ko'p ma'nolilik munosabatlariga oydinlik kiritish, leksikografik talqin qilish kabi qator muammolar maxsus tadqiq manbai bo'lmagan. Mazkur masalalarning, shuningdek, ijtimoiy-siyosiy terminlarining zamonaviy leksikografik tamoyillar asosidagi ilmiy tadqiqi ta'minlanmas ekan, ularni milliy til korpusida aks ettirish jarayoni to'laqonli bo'lmaydi. "Davlat tilining sofligini saqlash, uni boyitib borish va aholining nutq madaniyatini oshirish, o'zbek tilidagi mavjud lug'atlar asosida uzluksiz ta'limning barcha turlari uchun o'quv lug'atlarini yaratish"[8, 1-5 b.] kabilar dolzarb vazifadir.

Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalar mavjud:

a) turkiy tillar ijtimoiy-siyosiy terminlarining paydo bo'lish tarixiga qisqacha ekskurs qilish va ularning qo'llanish manbalarini konkretlashtirish;

b) turkiy tillardagi tub ijtimoiy-siyosiy terminlarning mushtarak va farqli jihatlarini aniqlash;

v) qiyoslanayotgan tillar ijtimoiy-siyosiy terminlarining yasama, birikma tiplaridagi mushtarak va farqli jihatlarini o'rganish;

g) qiyoslanayotgan tillar ijtimoiy-siyosiy terminlarning semantik jihatdan mushtarak va farqli xususiyatlarini tahlil qilish;

d) turkiy tillar ijtimoiy-siyosiy terminologiyasida o'zlashtirma qatlamning o'xshash va farqli jihatlarini tahlil etish;

e) qiyoslanayotgan tillar ijtimoiy-siyosiy terminlarining hozirgi holatiga munosabat bildirish;

j) turkiy tillarining qiyosiy ijtimoiy-siyosiy terminlarining qisqacha lug'atini ilova qilish.

Siyosatning muayyan davlat hokimiyati, siyosiy partiyalar, ijtimoiy-siyosiy harakatlar, jamoat tashkilotlarining mamlakat ichki hayotida va xalqaro maydonda millatlar, sinflar va boshqa ijtimoiy guruhlarining maqsad va manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan faoliyat ekanligidan kelib chiqib, unga mansub termin va termin bo'lmagan birliklar umumiste'molga oid so'zlardan farqlanadi. Ijtimoiy-siyosiy terminologik birliklar o'zining qo'llanish sohasida aniq tushunchani ifodalashi, ta'riflana olishi, baynalmilallashganligi, mazmunan bir-birini taqozo qilishi (tizimlilik), kontekstga bog'liq emasligi jihatidan qo'llanishi chegaralanmagan, til tizimida tabiiy yo'l bilan yuzaga kelgan, mazmuni kontekstda aniqlashadigan umumiste'mol so'zlardan farq qiladi.

Ijtimoiy-siyosiy terminologiya ilm-fan yoki faoliyatning muayyan sohasiga aloqador bo'lgan boshqa terminologik tizimlardan quyidagi belgilari bilan farqlanadi: ijtimoiy-siyosiy terminologik tizim birliklari faoliyatini o'zi qo'llanadigan jamiyat ijtimoiy hayotidan ajratib tadqiq etib bo'lmaydi; uning birliklari semantikasida u yoki bu darajada jamiyat mafkurasi o'zining aksini topadi; ko'plab ijtimoiy-siyosiy terminlarning tor soha doirasidan chiqib barchaga tushunarli so'zlarga aylanishi mazkur soha leksikasining o'ziga xos xususiyatidir; og'zaki va yozma nutqning turli uslubida qo'llanish imkoniyati ijtimoiy-siyosiy terminlarda sinonimiyaning keng tarqalishiga olib keladi.

Xulosa qilib aytganda, asosi bir o'zakdan bo'lgan turkiy tillarning ijtimoiy-siyosiy terminologiyasini keng qamrovli qiyosiy tadqiqotlar olib borish bugungi turkologiya fani oldidagi dolzarb masalardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Исабекова А.Б. Общественно-политическая терминология в кыргызском литературном языке и вопросы её упорядочения: Дисс. ... канд. филол. наук. – Фрунзе, 1971. – С. 251;
2. Кагарманов Г.Г. Формирование и развитие общественно-политической терминологии в башкырского литературного языка: Дисс. ... канд. филол. наук. – Фрунзе, 1979. – С. 152;
3. Фаттахова Н.Н. Роль русского языка в развитии и обогащение татарской общественно-политической терминологии: Дисс... канд. филол. наук. – Уфа, 1980. – С. 158;

4. Харланова М.С. Развитие общественно-политической терминологии туркменского языка в советский период: Дисс. ... канд. филол. наук. – Ашхабад, 1965. – С. 207.
5. Бабаев Р. Общественно-политическая лексика в азербайджанского языка в генетической аспекте.- Махачкала: АКД, 2005.
6. Пирниязова А. Пути формирования и развития общественно –политической лексики в современной каракалпакской литературном языке. – Ташкент: АКД, 1986.
7. Нажимов А. Ғарасизлик жыларында қарақалпақ тиледағи жамиятлик-сиясий лексиканинг раўвжланыўы. –PhD диссертацияси. – Нокис, 2020.
8. Дадабоев Ҳ. Общественно-политическая и социально-экономическая терминология в тюркоязычных памятниках XI-XIV вв. – Ташкент: Ёзувчи, 1991. – С. 186;
9. Исакова З. Алишер Навоийнинг “Мажолис ун-нафоис” асаридаги ижтимоий-сиёсий лексика: Филол. фан. номз... дисс. автореф. – Тошкент, 2010. – Б. 24;
10. Ўразбоев А. Огаҳийнинг “Риёзуд-давла” асарида ижтимоий-сиёсий лексика: Филол. фан. номз... дисс. автореф. – Тошкент, 2009. – Б. 22;
11. Тўрахожаева А.Х. Мустақиллик шароитида ўзбек тили ижтимоий-сиёсий лексикасининг тараққиёти: Филол. фан. номзоди.... дисс. – Тошкент, 2012. Б. – 136;
12. Тожиева Г.Н. Ўзбек тили маънавий-маърифий лексикасининг мустақиллик йилларидаги тараққиёти (“миллий ғоя” атов бирликлари тизими): филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) ... автореф. – Самарқанд, 2018. – Б. 44.
13. Шарапова Н. Ўзбек тилининг ижтимоий- сиёсий терминологияси. филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) ... автореф. – Қарши, 2021.
14. Щербак А.М. Сравнительных фонетика тюркских языков. – Ленинград, 1970.
15. Мусаев К.М. Лексика тюркских языков в сравнительном освещении. – Москва. 1975. Лексикология тюркских языков. – Москва 1984.
16. Мусаев К.М. Лексикология тюркских языков – с 6.
17. Гринев С.В. Введение в терминоведение. – М.: Моск. лицей, 1993. – С.75.
18. Одилқориев Х.Т., Раззоков Х.Д. Сиёсатшунослик. – Тошкент: Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти, 2009. – Б. 118.
19. Мамлакатимизда ўзбек тилини янада ривожлантириш ва тил сиёсатини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 20 октябрдаги ПФ-6084-сонли Фармони // www.lex.uz.